Urumchi shahrida o‘tkazilgan iqtisodiy forumda kimyo sanoati salohiyati va istiqbollariga bag‘ishlangan taqdimot o‘tkazildi

// 30 April 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/urumchi-shahrida-o-tkazilgan-iqtisodiy-forumda-kimyo-sanoati



Bugun, 30-aprel kuni Urumchi shahrida O‘zbekiston - Xitoy iqtisodiy forumi bo‘lib o‘tdi.

Uning ochilishida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov hamda Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Siyosiy byurosi a’zosi, Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni Partqo‘mi kotibi Ma Sinjuy boshchiligidagi delegatsiyalar ishtirok etdi.



So‘ngi yillarda mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar tobora mustahkamlanib, yaxshi munosabat va do‘stlikning yangi modeliga aylanib borayotgani, bunda ayniqsa, Davlatlar Rahbarlari o‘rtasidagi yaqin, samimiy va birodarlik munosabatlar muhim ahamiyat kasb etayotgani ta’kidlandi.

O‘z navbatida, bunday tadbirlar, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni chuqurlashtirish, o‘zaro hamkorlikning yangi qirralarini ochishga yordam berishi alohida qayd etildi.



Bugungi kunda xitoylik hamkorlar bilan energetika, kimyo, mashinasozlik, tekstil, qurilish materiallari, maishiy texnika, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma loyihalar samarali amalga oshirib kelinmoqda.



Iqtisodiy forumda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisi O. Temirov O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoati salohiyati va istiqbollariga bag‘ishlangan taqdimot o‘tkazdi.

Xususan, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kimyoviy mahsulotlarni faol jalb etish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan sanoat kooperatsiyasi, ishlab chiqarish loyihalari haqida ma’lumotlar berib o‘tildi. Shuningdek, kimyo-industrial klaterlar va texnoparklarni rivojlantirish va ularning imkoniyatlariga to‘xtalib o‘tildi.



Ta’kilash joiz, bugungi kunda Xitoy xalq Respublikasi bilan umumiy qiymati 2,16 mlrd dollarlik 5 loyiha amalga oshirilgan va shu asnoda ushbu mamlakat kompaniyalari bilan kimyo sanoatining an’anaviy yo‘nalishlarini ham, qayta tiklanadigan energiya va xomashyoni chuqur qayta ishlash sohasidagi zamonaviy loyihalarni ham qamrab olgan hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati